V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SOYIBBOYEV O‘LMASJON BOYQO‘ZI O‘G‘LI

BOSHQARUVLARI TURLI CHEGARALANISHGA EGA IKKINCHI TARTIBLI DIFFERENSIAL O‘YINLAR UCHUN QUVISH-QOCHISH MASALALARI

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UDK: 517.977.5/.978.4

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SOYIBBOYEV O‘LMASJON BOYQO‘ZI O‘G‘LI

BOSHQARUVLARI TURLI CHEGARALANISHGA EGA IKKINCHI TARTIBLI DIFFERENSIAL O‘YINLAR UCHUN QUVISH-QOCHISH MASALALARI

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/FM560 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (резюме)) Ilmiy kengash veb-saytida (http://kengash.mathinst.uz) va “Ziyonet” ta’lim axborat tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Samatov Baxrom Tadjiaxmatovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Ashurov Ravshan Radjabovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Axmedov Odiljon Soxibjonovich fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “07” may kuni soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 181-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9 uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “19” aprel kuni tarqatildi.
(2024 yil “19” apreldagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A. Rozikov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., akademik

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A.A. Azamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida ilm-fanda qo‘lga kiritilayotgan natijalarni amaliy sohalarga qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlarning keskin o‘sib borayotganligi tufayli, ko‘plab jarayonlarning matematik modellarini differensial tenglamalar yordamida ifodalanadigan boshqariluvchi sistemalar bilan bog‘liq holda ishlab chiqish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri amaliyotga tatbiq qilish yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida bunday masalalarni hal qilish uchun bevosita differensial o‘yinlar nazariyasiga murojaat qilishni taqozo etadi. Shu jihatdan differensial o‘yinlar usullaridan foydalangan holda ikkinchi tartibli differensial tenglamalar uchun quriladigan matematik modellarning texnika, muhandislik, iqtisodiyot, biologiya kabi sohalarga joriy qilinishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda differensial o‘yinlarning xilma-xilligini oshirish va ularga aloqador sohalarni kengaytirish maqsadida boshqaruvlari turli chegaralanishli yuqori tartibli differensial tenglamalar uchun o‘yin masalalarini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, o‘yindagi obyektlar ikkinchi tartibli differensial tenglamalar orqali ifodalanuvchi dinamikaga va boshqaruvlari konstruktiv cheklov (tezlanish) yoki manba chekloviga (yoqilg‘i, energiya) ega bo‘lganda quvish, qochish va R.Ayzeksning “Qutulish chizig‘i”ga ega sifat masalalarining yangi yechilish shartlarini topish va obyektlarning uchrashish sohasini qurish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda nazariy tadqiqotlarning ilmiy va amaliy joriy qilinishiga qaratilgan dolzarb yo‘nalishlariga e’tibor berish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Jumladan, “differensial tenglamalar nazariyasi, algebra va uning tatbiqlari, funksional analiz va uning tatbiqlari, dinamik sistemalar nazariyasi, matematik statistika, matematik modellashtirish” kabi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan[1]. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, dinamik sistemalar, differensial tenglamalar, matematik boshqaruv va dinamik o‘yinlar nazariyalarini takomillashtirishda turli chegaralanishlarga ega differensial o‘yin masalalari uchun optimal yechimlarni ta’minlaydigan boshqaruv modellarini qurish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PQ-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi №PQ-4387 “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlar hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Differensial o‘yinlar nazariyasi 50-yillarning boshlarida rivojlana boshladi. Birinchi jiddiy tadqiqotlardan ba’zilari “differensial o‘yin” atamasini kiritgan amerikalik matematik R.Ayzeksning ishlaridir. O‘tgan asr oltmishinchi yillarining boshidan boshlab ziddiyatli dinamik masalalar tadqiq qilindi va bu tadqiqotlar bevosita rus matematiklari L.S.Pontryagin, N.N.Krasovskiy, E.F.Mishchenko, Yu.S.Osipov, L.A.Petrosyan, B.N.Pshenichniy, A.I.Subbotinlar nomlari bilan bevosita bog‘liq. O‘tgan asrning oltmishinchi yillari oxiri-yetmishinchi yillari boshida amerikalik matematik olimlar orasida S.Baron, L.D.Bercovitz, J.V.Breakwell, O.Hajekning ishlari diqqatga sazovordir. Ular tegishli strategiyalar sinfida qiymat funksiyasi uchun mavjudlik teoremalarini ko‘rib chiqishdi va R.Ayzeksning birlik sirtlarni qurish orqali differensial o‘yinlarni yechish usulini shakllantirishdi. Differensial o‘yinlar nazariyasining keyingi rivojiga A.A.Azamov, F.L.Chernousko, A.A.Chikriy, A.V.Kryajimskiy, A.A.Melikyan, M.S.Nikolskiy, N.N.Petrov, N.Yu.Satimov, N.N.Subbotina, V.I.Uxobotov, V.N. Ushakov va yana boshqa ko‘plab matematiklar katta hissa qo‘shishdi.

L.S.Pontryagin differensial o‘yinni ikki nuqtai nazardan o‘rganish g‘oyasini ilgari surdi va takomillashtirdi. A.A.Azamov, A.A.Chikriy, A.N.Dar’in, N.L. Grigorenko, G.I.Ibragimov, D.V.Kornev, N.Yu.Lukoyanov, N.A.Mamadaliyev, M.Sh.Mamatov, Yu.N.Onopchuk, A.G.Pashkov, S.V.Pashko, N.Nikandr.Petrov, B.N.Pshenichniy, O.Sh.Qo‘chqarov, I.S.Rappoport, B.B.Rixsiyev, N.Yu.Satimov, B.T.Samatov, J.Shiyuan, S.D.Terexov, M.Tuxtasinov, L.P.Yugay, Q.Zhihua va bosh-qalar geometrik va integral chegaralanishlar uchun ko‘p ishtirokchilarga ega diskret va differensial o‘yinlarida quvish masalalarini tadqiq qilishdi va bunday masa-lalarni yechish usullarini kengaytirishdi.

L.A.Petrosyan o‘zi ishlab chiqqan parallel quvish strategiyasi (Π-strategiya) orqali fazaviy chegaralanishlar bilan guruhli quvish muammosi va R.Ayzeksning “Qutulish chizig‘i” muammosiga o‘zining yechimlarini ko‘rsatdi. A.A.Azamov birinchi bo‘lib ko‘p qiymatli akslantirishning tayanch funksiyasini qo‘llash orqali ko‘p quvlovchi va bitta qochuvchili “Qutulish chizig‘i” o‘yinining analitik yechimini taklif qildi. B.T.Samatov integral, chiziqli, nostatsionar, nochiziq, Gronuoll, Langenhop chegaralanishlar va ularning aralash ko‘rinishlariga ega sodda harakatli differensial o‘yinlar uchun Π-strategiyaning alohida-alohida analoglarini qurdi. G.I.Ibragimov Gilbert fazosidagi differensial o‘yinlar bo‘yicha tadqiqotlarni boshlab berdi va ko‘p quvlovchi va bitta qochuvchining cheksiz differensial tenglamalari sistemasi bilan tasvirlangan ham sodda, ham inersion harakatli o‘yinlar uchun quvish va qochish masalalarini hal qildi. N.A.Mamadaliyev o‘yinchilar boshqaruvlariga geometrik, integral va turli cheklovlar kiritilgan hollar

uchun kechikish argumentli differensial tenglama bilan tasvirlangan sistemaga nisbatan differensial o‘yinlar nazariyasining quvish va qochish masalalari bo‘yicha tadqiqotlar olib bordi va muhim natijalarga erishdi. Sodda quvish masalasining umumlashmasi L.S.Pontryaginning boshqaruv misoli hisoblanadi. A.S.Bannikov, A.I.Blagodatskix, N.N.Petrov, N.A.Solov’eva, D.A.Vaginlarning bir qator tadqiqot ishlarida Pontryagin misolida quvlovchilar guruhi va bitta qochuvchi holida quvish-qochish masalalari atroflicha o‘rganilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Differensial tenglamalar va uning turdosh matematik sohalarining dolzarb muammolari” dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi obyektlarning boshqaruv parametrlari geometrik cheklovlarga bo‘ysinuvchi o‘lchovli funksiyalar oilasidan tanlab olingan holda ikkinchi tartibli differensial o‘yinlar uchun quvish, qochish va “Qutulish chizig‘i” masalalarini hal qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

obyektlarning bir xil boshlang‘ich tezliklari holidagi inersion harakatli differensial o‘yinda quvish, qochish va “Qutulish chizig‘i” masalalarining yechilish shartlarini topish va obyektlarning uchrashish sohasining analitik formulasini qurish;

obyektlarning boshlang‘ich vaziyatlari ayirmasini ularning boshlang‘ich tezliklari ayirmasiga chiziqli bog‘liqligi holida inersion harakatli differensial o‘yinda quvish masalasining yechilish shartlarini aniqlash va obyektlarning uchrashish sohasining analitik formulasini topish;

obyektlarning boshlang‘ich vaziyatlari ayirmasini ularning boshlang‘ich tezliklari ayirmasiga chiziqsiz bog‘liqligi holida inersion harakatli differensial o‘yinda quvish masalasining yechilish shartlarini aniqlash va obyektlarning uchrashish sohasining analitik formulasini qurish;

bir xil boshlabg‘ich tezliklar va ishqalanish koeffitsiyentlari bilan berilgan obyektlarning bir xil tipdagi harakat tenglamalari orqali ifodalangan Pontryagin misoli uchun quvish, qochish va “Qutulish chizig‘i” masalalarining yechilish shartlarini aniqlash va obyektlarning uchrashish sohasining analitik formulasini topish.

Tadqiqotning obyekti matematik boshqaruvning chiziqli nazariyasi elementlari, chiziqli differensial tenglamalar, boshqaruv parametrlari geometrik cheklovlarga bo‘ysinuvchi o‘lchovli funksiyalar oilasiga mansub bo‘lgan holda ikkinchi tartibli differensial o‘yinlarning quvish, qochish va “Qutulish chizig‘i” masalalaridan iborat.

Tadqiqotning predmeti boshqaruv parametrlari geometrik cheklovlarga bo‘ysinuvchi qarama-qarshi boshqaruvli ikkinchi tartibli dinamik sistemalarda quvish, qochish va “Qutulish chizig‘i” masalalari yechimlarini topishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida quvish masalalari uchun hal qiluvchi funksiyalar metodi yordamida parallel quvish strategiyasi tatbiq qilingan, qochish

masalalari uchun esa qarama-qarshi yo‘nalishli boshqaruv metodidan foydalanilgan va bundan tashqari, chiziqli boshqaruv nazariyasi, differensial o‘yinlar, variatsion hisob usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

obyektlarning bir xil boshlang‘ich tezliklari holidagi inersion harakatli differensial o‘yinda quvish, qochish va “Qutulish chizig‘i” masalalarining yechilish shartlari topilgan va quvlovchining parallel quvish strategiyasi optimal ekanligi isbotlangan;

obyektlarning boshlang‘ich vaziyatlari ayirmasini ularning boshlang‘ich tezliklari ayirmasiga chiziqli bog‘liqligi holida inersion harakatli differensial o‘yinda quvish masalasining yechilishi va obyektlarning uchrashish sohasi ichma-ich joylashishga nisbatan monotonligi isbotlangan;

obyektlarning boshlang‘ich vaziyatlari ayirmasini ularning boshlang‘ich tezliklari ayirmasiga chiziqsiz bog‘liqligi holida inersion harakatli differensial o‘yinda quvish masalasining yechilish shartlari aniqlangan va obyektlarning uchrashish sohasi uchun oshkor ko‘rinishdagi formula hosil qilingan;

bir xil boshlang‘ich tezliklar va ishqalanish koeffitsiyentlari bilan berilgan obyektlarning bir xil tipdagi harakat tenglamalari orqali ifodalangan Pontryagin misoli uchun quvish, qochish va “Qutulish chizig‘i” masalalarining yechilish shartlari topilgan va obyektlarning uchrashish sohasi uchun oshkor ko‘rinishdagi formula aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi dissertatsiyada keltirilgan natijalar va ularning isbotini yoritishda foydalanilgan metodlar ayniqsa, ikki va undan yuqori tartibli differensial tenglamalar bilan ifodalanadigan ziddiyatli jarayonlarni boshqarish masalalariga bevosita tatbiq qilinadi. Aksariyat natijalar sonli misollar orqali tahlil qilingan va geometrik tasvirlari ham ko‘rsatib berilgan. Bu esa tadqiqot ishida hal etilgan masalalarning hayotiy jarayonlarni matematik modellashtirishda qo‘llanilishiga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Matematik boshqaruvning chiziqli nazariyasi, chiziqli differensial tenglamalar nazariyasi, funksional va matematik tahlil, variatsion hisob, differensial o‘yinlar nazariyasining quvish-qochish muammolariga oid teorema va lemmalar qo‘llanilgan. Tadqiqot ishida keltirilgan natijalar matematikadagi qat’iy yondashuvlar asosida isbotlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati inersiyaga ega dinamik sistemalar bilan ifodalangan ziddiyatli boshqaruv masalalarining optimal yechimlarini ta’minlaydigan strategiyalarning qurilishi va qo‘llanishidadir. Keltirilgan natijalar boshqaruv va differensial o‘yinlar nazariyalaridagi klassik metodlarni takomillashtirish va ularning amaliyotdagi tadbiqlari bilan bog‘liq muammolarning yechimlarini aniqlashda foydalanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ikkinchi tartibli differensial tenglamalar ko‘plab murakkab real jarayonlar, jumladan, atomlar yoki molekulalar orasidagi bog‘lanish, sun’iy yo‘ldosh vositalarining harakati, elektr zanjiri qonun-

larining matematik modeli sifatida fizika, texnika, tibbiyot, muhandislik va ekologiya sohalaridagi ziddiyatli boshqaruv masalalari uchun optimal strategiyaning aniqlanishi hamda hisoblash dasturlarini qurish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turli chegaralanishli boshqaruvlarga ega ikkinchi tartibli differensial o‘yinlar bo‘yicha olingan natijalar asosida:

obyektlarning boshqaruvlari geometrik cheklovlar ostidagi inersion harakatli differensial o‘yinda quvish, qochish va Ayzeksning “Qutulish chizig‘i” masalalari yechilish shartlaridan OT-F4-33 raqamli “Differensial tenglamalar bilan tavsiflanuvchi ziddiyatli boshqaruv uchun yangi usullarni ishlab chiqish va ularning sonli tadbiqi” mavzusidagi fundamental loyihada boshqaruvlari holat cheklovlariga ega dinamik tenglamalar bilan tasvirlangan qarama-qarshi holatlarni boshqarish masalalarni yechishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 6-fevraldagi 04/11-1004-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanishi geometrik cheklovlarga bo‘ysinuvchi va ikkinchi tartibli dinamik tenglamalar bilan ifodalangan qarama-qarshi holatlarni boshqarish masalalarining to‘liq yechimlarini ko‘rsatish imkonini bergan;

bir xil boshlang‘ich tezliklar va ishqalanish koeffitsiyentlari bilan berilgan obyektlarning bir xil tipdagi harakat tenglamalari orqali ifodalangan Pontryagin boshqaruv misoli uchun quvish, qochish va “Qutulish chizig‘i” masalalarining yechilish shartlaridan OT-F4-28 raqamli “Giperbolik sistemalar uchun adekvat hisoblash modellarini qurish” mavzusidagi fundamental loyihada boshqaruvlari turli cheklovlarga ega bir xil tipdagi ikkinchi tartibli xususiy hosilali tenglamalar bilan tavsiflanuvchi ziddiyatli jarayonlarni optimal boshqarish masalalarini hal qilishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 28-fevraldagi 04/11-1578-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanishi ikkinchi tartibli giperbolik sistemalar uchun adekvat hisoblash modellarini qurish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 16 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 8 tasi xalqaro va 8 tasi respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 7 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 3 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlarning tahlili berilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi ochib berilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarining tatbiqi, shuningdek nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob “**Bir xil boshlang‘ich tezliklarga ega inersion o‘yinchilar uchun “Qutulish chizig‘i” ga ega differensial o‘yin**” deb nomlanadi va bir xil boshlang‘ich tezliklarga ega obyektlarning boshqaruv funksiyalari geometrik chegaralanishlarga bo‘ysinuvchi inersion harakatli differensial o‘yinida quvish, qochish va “Qutulish chizig‘i” masalalari tadqiq qilinadi.

Faraz qilaylik, $\mathbb{R}^n$ fazoda *quvlovchi* deb nomlangan boshqariluvchi $\boldsymbol{P}$ obyekt *qochuvchi* deb nomlangan boshqa bir boshqariluvchi $\boldsymbol{E}$ obyektni ta’qib qilsin. x – quvlochining holat vektori, y – qochuvchining holat vektori bo‘lsin va ushbu obyektlarning harakat dinamikasi quyidagi ko‘rinishda bo‘lsin:

$$\boldsymbol{P}: \ \ddot{x} = u, x(0) = x_{10}, \dot{x}(0) = x_{11}; \ \boldsymbol{E}: \ \ddot{y} = v, y(0) = y_{10}, \dot{y}(0) = y_{11}, \qquad (1)$$

bu yerda $x, y, x_{10}, y_{10}, x_{11}, y_{11}, u, v \in \mathbb{R}^n$, $n \geq 2$; x_{10} va y_{10} (mos holda, x_{11} va y_{11}) – obyektlarning boshlang‘ich vaziyat vektorlarini (mos holda, boshlang‘ich tezlik vektorlarini) ifodalaydi. Hozir va bundan keyin, $x_{10}, y_{10}, x_{11}, y_{11}$ vektorlar $x_{10} \neq y_{10}$ va $x_{11} = y_{11}$ munosabatlarni qanoatlantiradi deb qaraymiz.

u va v vektorlarning vaqt bo‘yicha o‘zgarishi mos holda $u(\cdot): [0, +\infty) \to \mathbb{R}^n$ va $v(\cdot): [0, +\infty) \to \mathbb{R}^n$ o‘lchovli funksiyalar bo‘lishi talab etiladi va ularga quyidagi *geometrik chegaralanishlar* (qisqa qilib, $\boldsymbol{G}$*-chegaralanishlar*) belgilanadi:

$$|u(t)| \leq \alpha, \ |v(t)| \leq \beta \text{ deyarli barcha } t \geq 0, \qquad (2)$$

bu yerda α va β – berilgan musbat sonlar va shu bilan birgalikda, ular $\boldsymbol{P}$ va $\boldsymbol{E}$ obyektlar tezlanishlarining maksimal qiymatlarini bidiradi.

Aytib o‘tish joizki, hozir va bundan keyin, (2) dagi $u(t)$ va $v(t)$ boshqaruv vektorlarining normalari sifatida odatdagi Yevklid normasini nazarda tutiladi.

Hozirdan e’tiboran, $\boldsymbol{U}_\alpha$ (mos holda, $\boldsymbol{V}_\beta$) orqali (2) $\boldsymbol{G}$- chegaralanishlarning birinchisiga (mos holda, ikkinchisiga) mos keluvchi barcha $u(\cdot)$ (mos holda, $v(\cdot)$) boshqaruv funksiyalar oilasini tasvirlaymiz.

(1) orqali $(x_{10}, x_{11}, u(\cdot))$ va $(y_{10}, y_{11}, v(\cdot))$ uchliklar, bu yerda $u(\cdot) \in \boldsymbol{U}_\alpha$ va $v(\cdot) \in \boldsymbol{V}_\beta$, $\boldsymbol{P}$ va $\boldsymbol{E}$ obyektlarning quyidagi trayektoriyalarini hosil qiladi:

$$x(t) = x_{10} + x_{11}t + \int_0^t (t-s)u(s)ds, \ y(t) = y_{10} + y_{11}t + \int_0^t (t-s)v(s)ds \qquad (3)$$

Endi $\mathbb{R}^n$ fazoda “Qutulish chizig‘i” deb ataluvchi $\boldsymbol{M}$ yopiq qism soha ko‘rsatilgan deb qaraymiz. $\boldsymbol{P}$ obyektning asosiy maqsadi $\boldsymbol{E}$ obyekt bilan ustma-ust tushish, aniqrog‘i, $\boldsymbol{E}$ obyekt $\mathbb{R}^n \setminus \boldsymbol{M}$ sohani tark etishidan oldin $\tilde{t} > 0$ chekli vaqtda $x(\tilde{t}) = y(\tilde{t})$ tenglik bajarilishini amalga oshirish. $\boldsymbol{E}$ obyektning maqsadi esa $\boldsymbol{P}$ obyekt bilan to‘qnashishdan oldinroq $\boldsymbol{M}$ sohaga yetib borish yoki har qanday $t \in [0, +\infty)$ qiymatlari uchun $x(t) \neq y(t)$ munosabatning o‘zgarmasligiga erishish. Aytib o‘tish kerakki, $\boldsymbol{M}$ soha $\boldsymbol{P}$ obyektning harakatini cheklamaydi. Bundan tashqari, x_{10} va y_{10} boshlang‘ich vaziyat vektorlari $x_{10} \neq y_{10}$ va $y_{10} \notin \boldsymbol{M}$ shartlar bilan berilgan deb qaraladi.

$$z(t) = x(t) - y(t),\ z(0) = z_{10} = x_{10} - y_{10},\ \dot{z}(0) = z_{11} = x_{11} - y_{11} \tag{4}$$

ifodalashlarni yozib olaylik. U holda, (1)–(3) ga asoslanib, quyidagi boshlang‘ich qiymat masalasiga kelamiz:

$$\ddot{z} = u - v,\ z(0) = z_{10},\ \dot{z}(0) = 0. \tag{5}$$

Buning natijasida, (1)–(2) o‘yinga muqobil sifatida, (2), (5) o‘yin yoki qisqa qilib, $(\boldsymbol{U}_\alpha, \boldsymbol{V}_\beta)$ o‘yinni hosil qilamiz.

$\boldsymbol{S}_r$ – $\mathbb{R}^n$ dagi markazi koordinatalar boshidagi r radiusli sharni ifodalasin.

1-ta’rif. Faraz qilaylik, $\alpha \geq \beta$ bo‘lsin. U holda, $(\boldsymbol{U}_\alpha, \boldsymbol{V}_\beta)$ o‘yinda

$$\boldsymbol{u}(z_{10}, v) = v - \lambda(z_{10}, v)\xi_{10} \tag{6}$$

funksiyani $\boldsymbol{P}$ obyektning $\boldsymbol{\Pi}$-*strategiyasi* deb ataymiz, bu yerda

$$\lambda(z_{10}, v) = \langle v, \xi_{10} \rangle + \sqrt{\langle v, \xi_{10} \rangle^2 + \alpha^2 - |v|^2},\ \ \xi_{10} = \frac{z_{10}}{|z_{10}|},$$

va $\langle v, \xi_{10} \rangle$ – v va ξ_{10} vektorlarning $\mathbb{R}^n$ fazodagi skalyar ko‘paytmasi. Bu holda, $\lambda(z_{10}, v)$ – *hal qiluvchi funksiya* deb ataladi.

2-ta’rif. $\boldsymbol{\Pi}$-strategiya $[0, t_g]$ vaqt oralig‘ida $\boldsymbol{E}$ *obyektni tutishni kafolatlaydi* deb aytamiz, agar har qanday $v(\cdot) \in \boldsymbol{V}_\beta$ boshqaruv uchun: *i*) $z(\tilde{t}) = 0$ tenglik hosil bo‘ladigan $\tilde{t} \in [0, t_g]$ vaqt qiymati mavjud bo‘lsa; *ii*) $[0, \tilde{t}]$ vaqt oralig‘ida ushbu $\boldsymbol{u}(z_{10}, v(\cdot)) \in \boldsymbol{U}_\alpha$ tegishlilik bajarilsa. Bunday holatda, t_g qiymatni *kafolatlangan quvish* (yoki *tutish*) *vaqti* deyiladi.

1-teorema. $(\boldsymbol{U}_\alpha, \boldsymbol{V}_\beta)$ o‘yinda $\alpha > \beta$ bajarilsin. U holda, (6) $\boldsymbol{\Pi}$-strategiya $[0, t_g]$ vaqt oralig‘ida $\boldsymbol{E}$ obyektni tutishni kafolatlaydi, bu yerda $t_g = \sqrt{\dfrac{2|z_{10}|}{\alpha - \beta}}$.

3-ta’rif. $(\boldsymbol{U}_\alpha, \boldsymbol{V}_\beta)$ o‘yinda

$$\boldsymbol{v}_{\boldsymbol{E}}(t) = -\beta\xi_{10} \tag{7}$$

boshqaruv funksiyani $\boldsymbol{E}$ *obyektning strategiyasi* deb ataymiz.

4-ta'rif. $\boldsymbol{v_E}(\cdot)\in \boldsymbol{V}_\beta$ strategiya *qochishni kafolatlaydi* deyiladi, agar har qanday $u(\cdot)\in \boldsymbol{U}_\alpha$ boshqaruv uchun $\ddot{z}=u(t)-\boldsymbol{v_E}(t),\ z(0)=z_{10},\ \dot{z}(0)=0$ Koshi masalasining $z(t)$ yechimi barcha $t\in[0,+\infty)$ qiymatlarda nol bo'lmasa, ya'ni $z(t)\neq 0$ bo'lsa.

2-teorema. *i*) $\alpha>\beta$ bo'lsin. U holda, $(\boldsymbol{U}_\alpha,\boldsymbol{V}_\beta)$ o'yinda (7) strategiya $[0,\,t_g)$ vaqt oralig'ida qochishni kafolatlaydi, bu yerda t_g – kafolatlangan tutish vaqti; *ii*) $\alpha\le\beta$ bo'lsin. U holda, $(\boldsymbol{U}_\alpha,\boldsymbol{V}_\beta)$ o'yinda (7) strategiya $[0,+\infty)$ vaqt oralig'ida qochishni kafolatlaydi va obyektlar orasidagi masofa quyidagicha baholanadi:

$$|z(t)|\ge\begin{cases}|z_{10}| & \text{agar } \alpha=\beta \text{ bo'lsa,}\\ |z_{10}|+\dfrac{(\beta-\alpha)t^2}{2} & \text{agar } \alpha<\beta \text{ bo'lsa.}\end{cases}$$

Har qanday $v(\cdot)\in\boldsymbol{V}_\beta$ boshqaruv va $\boldsymbol{u}(z_{10},v(\cdot))\in\boldsymbol{U}_\alpha$ strategiya orqali $[0,\,\tilde{t}\,]$, bu yerda $0\le\tilde{t}<t_g$ va $x(\tilde{t})=y(\tilde{t})$ o'rinli, vaqt oralig'idagi $(x(t),y(t))$ uchun $\boldsymbol{W}(x(t),y(t))=\left\{w:\ |w-x(t)|\ge\dfrac{\alpha}{\beta}|w-y(t)|\right\}$ ko'p qiymatli akslantirish aniqlanadi va $t=0$ da $\boldsymbol{W}(x_{10},y_{10})=\left\{w:\ |w-x_{10}|\ge\dfrac{\alpha}{\beta}|w-y_{10}|\right\}$ to'plamga ega bo'lamiz.

3-teorema. $\boldsymbol{W}(x(t),y(t))-x_{11}t$ ko'p qiymatli akslantirish $t\in[0,\,\tilde{t}\,]$ bo'yicha ichma-ich joylashishga nisbatan monoton kamayuvchidir, ya'ni agar har qanday $t_1,\,t_2\in[0,\,\tilde{t}\,]$ uchun $t_1<t_2$ bo'lsa, $\boldsymbol{W}(x(t_2),y(t_2))-x_{11}t_2\subset\boldsymbol{W}(x(t_1),y(t_1))-x_{11}t_1$ munosabat o'rinli.

"Qutulish chizig'i" o'yinini $\boldsymbol{P}$ obyektning foydasiga hal qilish uchun ushbu qavariq va yopiq $\boldsymbol{W}_{\boldsymbol{P}}(x_{10},y_{10},x_{11},t_g)=\bigcup\limits_{t=0}^{t_g}\{\boldsymbol{W}(x_{10},y_{10})+x_{11}t\}$ to'plamni aniqlaymiz.

$\boldsymbol{W}_{\boldsymbol{P}}(x_{10},y_{10},x_{11},t_g)$ to'plamga $\boldsymbol{P}$ *obyektning quvish masalasidagi yetishish sohasi* deyiladi.

5-ta'rif. (1)–(2) "Qutulish chizig'i" o'yinida (6) $\boldsymbol{\Pi}$-strategiya $[0,\,t_g\,]$ vaqt oralig'ida $\boldsymbol{P}$ *obyekt uchun yutishni ta'minlaydi* deyiladi, agar shunday $t_*\in[0,\,t_g\,]$ vaqt mavjud bo'lsaki, quyida keltirilgan shartlar bajarilsa: *i*) $x(t_*)=y(t_*)$ bo'lsa; *ii*) har bir $t\in[0,\,t_*\,]$ uchun $y(t)\notin\boldsymbol{M}$ bo'lsa.

4-teorema. Agar: *i*) $\alpha>\beta$; *ii*) $\boldsymbol{P}$ obyektning yetishish sohasi $\boldsymbol{M}$ soha bilan kesishmasa, ya'ni $\boldsymbol{W}_{\boldsymbol{P}}(x_{10},y_{10},x_{11},t_g)\cap\boldsymbol{M}=\varnothing$ bo'lsa, u holda (6) $\boldsymbol{\Pi}$-strategiya $\boldsymbol{P}$ obyekt uchun (1)–(2) "Qutulish chizig'i" o'yinida yutishni ta'minlaydi.

6-ta'rif. (1)–(2) "Qutulish chizig'i" o'yinida $v_{\boldsymbol{M}}(\cdot)\in\boldsymbol{V}_\beta$ boshqaruv $\boldsymbol{E}$ *obyekt uchun yutishni ta'minlaydi* deyiladi, agar har qanday $u(\cdot)\in\boldsymbol{U}_\alpha$ boshqaruv uchun

quyida keltirilgan shartlardan kamida bittasi o‘rinli bo‘lsa, ya’ni: *i*) shunday t_M chekli vaqt topilsaki, barcha $t \in [0, t_M)$ qiymatlar uchun $y(t_M) \in M$ va $x(t) \neq y(t)$ munosabatlar bajarilsa; *ii*) barcha $t \in [0, +\infty)$ qiymatlar uchun $x(t) \neq y(t)$ bo‘lsa.

$W_E(x_{11}, y_{10}, w) = \bigcup_{w \in W(x_{10}, y_{10})} \left\{ w_E : \; w_E = x_{11} \sqrt{\frac{2|w - y_{10}|}{\beta}} + w \right\}$ to‘plamni qaraylik.

$W_E(x_{11}, y_{10}, w)$ to‘plamga (1)–(2) “Qutulish chizig‘i” o‘yinida E *obyektning yetishish sohasi* deyiladi.

5-teorema. Agar: *i*) $\alpha > \beta$ bo‘lsa; *ii*) E obyektning yetishish sohasi M soha bilan kesishsa, ya’ni $W_E(x_{11}, y_{10}, w) \cap M \neq \varnothing$ bo‘lsa, u holda (1)–(2) “Qutulish chizig‘i” o‘yinida E obyekt uchun yutishni ta’minlaydigan $v_M(\cdot) \in V_\beta$ boshqaruv mavjud.

6-teorema. $\alpha \leq \beta$ bo‘lsin. U holda, (1)–(2) “Qutulish chizig‘i” o‘yinida E obyekt uchun yutishni ta’minlaydigan $v_M(\cdot) \in V_\beta$ boshqaruv mavjud.

Ikkinchi bob “**Turli boshlang‘ich tezliklarga ega inersion o‘yinchilar differensial o‘yinida Π-strategiyaning tatbiqlari**” deb nomlanadi va o‘zaro teng bo‘lmagan boshlang‘ich tezliklarga ega obyektlar uchun inersion harakatli differensial o‘yinda yangicha metod asosida quvish masalasi tadqiq qilinadi.

Dastlabki bobdagi kab, $\mathbb{R}^n$ fazoda ikkita boshqariluvchi P va E obyektlarning inersion harakatli differensial o‘yinini o‘rganamiz va bunda, ulardan birinchisi (2) G-chegaralanishlarning birinchisiga bo‘ysinuvchi $u(\cdot)$ boshqaruv bilan (1) dinamikaning birinchi tenglamasiga asosan harakatlanadi, ikkinchisi esa (2) G-chegaralanishlarning ikkinchisiga bo‘ysinuvchi $v(\cdot)$ boshqaruv yordamida (1) dinamikaning ikkinchi tenglamasiga asosan harakatlanadi.

Yuqoridagi bobdan farqli ravishda, bu yerda $x_{11} \neq y_{11}$ deb qaraladi.

Ravshanki, (4) ifodalashlar tufayli (1) dinamikadan

$$\ddot{z} = u - v, \; z(0) = z_{10}, \; \dot{z}(0) = z_{11}. \tag{8}$$

boshlang‘ich qiymat masalasi hosil qilinadi. Har qanday tanlangan $u(\cdot) \in U_\alpha$ va $v(\cdot) \in V_\beta$ joiz boshqaruvlar uchun (8) masalaning yechimi quyidagicha yoziladi:

$$z(t) = z_{10} + z_{11} t + \int_0^t (t - s)\big(u(s) - v(s)\big) ds. \tag{9}$$

(9) funksiyaga muvofiq, P obyekt berilgan z_{10} va z_{11} boshlang‘ich vaziyat vektorlari uchun eng qisqa t vaqtda $z(t) = 0$ tenglikka erishishni maqsad qilgan bo‘lsin va shuning barobarida, E obyekt esa barcha $t \geq 0$ vaqt qiymatlari uchun $z(t) \neq 0$ tengsizlikning o‘zgarmasdan saqlanishiga intiladi.

Biz z_{10} va z_{11} boshlang‘ich vaziyat vektorlariga bog‘liq holda, quvish masalasining yechimini ko‘rsatamiz va quyidagi ikkita holatni ko‘rib chiqamiz:

1-hol. z_{10} va z_{11} vektorlar kollinear, aniqrog‘i, chekli k son uchun $z_{11} = k z_{10}$ o‘rinli.

2-hol. z_{10} va z_{11} vektorlar nokollinear, aniqrog‘i, ular chiziqli bog‘liqsiz.

Xuddi birinchi bobdagi kabi, $\boldsymbol{P}$ obyekt 1-holda (6) $\boldsymbol{\Pi}$-strategiyani qo‘llasin.

7-teorema. Quyida berilgan shartlardan kamida bittasi o‘rinli bo‘lsin: *i*) $\alpha > \beta$ va $k \in \mathbb{R}$; *ii*) $\alpha = \beta$ va $k < 0$. U holda (6) $\boldsymbol{\Pi}$-strategiya 1-holda $[0, T_{10}]$ vaqt oralig‘ida yutuqlidir, bu yerda

$$T_{10} = \begin{cases} \left(k|z_{10}| + \sqrt{k^2|z_{10}|^2 + 2(\alpha-\beta)|z_{10}|}\right)\Big/(\alpha-\beta) & \text{agar } \alpha > \beta,\ k \in \mathbb{R} \text{ bo‘lsa,} \\ -1/k & \text{agar } \alpha = \beta,\ k < 0 \text{ bo‘lsa.} \end{cases}$$

1-bobdagi kabi $\big(x(t), y(t)\big)$ juftlik uchun $\left[0, t_{10}^*\right]$ vaqt oralig‘idagi qiymatlar uchun $\boldsymbol{A}\big(x(t), y(t)\big) = \left\{ w_{\boldsymbol{A}} : \left|w_{\boldsymbol{A}} - x(t)\right| \le \dfrac{\alpha}{\beta}\left|w_{\boldsymbol{A}} - y(t)\right| \right\}$ ko‘p qiymatli akslantirishni aniqlay olamiz.

1-xossa. 1-holda $\boldsymbol{E}$ obyektning yetishish sohasi $\boldsymbol{A}_{\boldsymbol{E}} = \boldsymbol{A}_{10} + \bigcup\limits_{t=0}^{T_{10}} t\boldsymbol{A}_{11}$ to‘plam bo‘ladi, ya’ni, $\boldsymbol{E}$ obyektning $y_{T_{10}}(\cdot) = \{y(s) : 0 \le s \le T_{10}\}$ trayektoriyasi $\boldsymbol{A}_{\boldsymbol{E}}$ yopiq qavariq to‘plamdan chiqib ketmaydi, bu yerda $\boldsymbol{A}_{10} = \dfrac{\alpha^2 y_{10} - \beta^2 x_{10}}{\alpha^2 - \beta^2} + \dfrac{\alpha\beta|z_{10}|}{\alpha^2 - \beta^2}\boldsymbol{S}$.

Endi boshlang‘ich nol bo‘lmagan z_{10} va z_{11} vektorlar nokollinear bo‘lsin va $\alpha > \beta$ bo‘lsin, ya’ni 2-hol tadqiq qilinadi.

Dastlab, quyidagi qo‘shimcha masalani hal qilamiz.

1-masala. $\boldsymbol{E}$ obyektning har qanday $v(\cdot) \in \boldsymbol{V}_\beta$ boshqaruvi uchun

$$\dot{x}(\theta) = \dot{y}(\theta) \tag{10}$$

tezliklar tengligiga erishiladigan $\boldsymbol{\Pi}$-strategiyani qurish talab etiladi, bu yerda θ – biror chekli vaqt.

1-masalani yechish uchun, (1) ikkinchi tartibli differensial o‘yin birinchi tartibli differensial o‘yinga keltiriladi. Buning uchun $x_1 = \dot{x}$ va $y_1 = \dot{y}$ yangi o‘zgaruvchilarni kiritamiz. U holda, (1) dinamikadan mos ravishda

$$\dot{x}_1 = u,\ x_1(0) = x_{11};\ \ \dot{y}_1 = v,\ y_1(0) = y_{11}$$

tenglamalarga ega bo‘lamiz, bu yerda u (mos holda, v) x_1 (mos holda, y_1) vektorning t vaqtga bog‘liq holda o‘zgarish ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi. Ravshanki, $x_{11} \ne y_{11}$, aks holda, yana 1-holga qaytamiz, bu yerda x_{11}, y_{11} – mos ravishda x_1, y_1 vektorlarning boshlang‘ich vaziyatlaridir.

7-ta’rif. 1-masala uchun

$$\boldsymbol{u}_1(z_{11}, v) = v - \lambda_1(z_{11}, v)\xi_{11} \tag{11}$$

funksiyaga $\boldsymbol{P}$ obyektning $\boldsymbol{\Pi}_1$-*strategiyasi* deb ataladi, bu yerda

$$\lambda_1(z_{11}, v) = \langle v, \xi_{11}\rangle + \sqrt{\langle v, \xi_{11}\rangle^2 + \alpha^2 - |v|^2},\ \xi_{11} = \frac{z_{11}}{|z_{11}|},\ z_{11} = x_{11} - y_{11}$$

va $\boldsymbol{u}_1\big(z_{11}, v(t)\big)$, $t \ge 0$ – har qanday $v(\cdot) \in \boldsymbol{V}_\beta$ uchun $\boldsymbol{u}_1(z_{11}, v)$ ning joriy qilinishi.

8-teorema. $\alpha > \beta$ bo‘lsin and $\boldsymbol{P}$ obyekt (11) Π_1-strategiyani qo‘llasin. U holda, $\boldsymbol{E}$ obyektning har qanday $v(\cdot) \in \boldsymbol{V}_\beta$ boshqaruvi uchun biror $\theta \in [\theta_{10}, \theta_{11}]$ vaqtda (10) tenglikka erishish mumkin, bu yerda $\theta_{10} = \dfrac{|z_{11}|}{\alpha + \beta}$, $\theta_{11} = \dfrac{|z_{11}|}{\alpha - \beta}$.

9-teorema. $\alpha > \beta$ bo‘lsin and $\boldsymbol{P}$ obyekt (11) Π_1-strategiyani qo‘llasin. U holda, $\boldsymbol{E}$ obyektning har qanday $v(\cdot) \in \boldsymbol{V}_\beta$ boshqaruvi uchun $|z(t)|$ obyektlar orasidagi masofa $[0, \theta]$ vaqt oralig‘ida $L_{10} \le |z(t)| \le L_{11}$ baholashni qanoatlantiradi, bu yerda

$$L_{10} = \begin{cases} |z_{10}| & \text{agar } \langle z_{10}, z_{11} \rangle > 0 \text{ bo‘lsa,} \\ \left| z_{10} - \dfrac{\langle z_{10}, z_{11} \rangle}{|z_{11}|^2} z_{11} \right| & \text{agar } \langle z_{10}, z_{11} \rangle < 0 \text{ bo‘lsa,} \end{cases}$$

$$L_{11} = \begin{cases} \left| z_{10} + \dfrac{|z_{11}|}{2(\alpha - \beta)} z_{11} \right| & \text{agar } \langle z_{10}, z_{11} \rangle > 0 \text{ bo‘lsa,} \\ \max\left\{ |z_{10}|, \left| z_{10} + \dfrac{|z_{11}|}{2(\alpha - \beta)} z_{11} \right| \right\} & \text{agar } \langle z_{10}, z_{11} \rangle < 0 \text{ bo‘lsa.} \end{cases}$$

Shunday qilib, 9-teoremada ta’kidlanganidek, $\boldsymbol{P}$ va $\boldsymbol{E}$ obyektlar $[0, \theta]$ vaqt oralig‘ida ustma-ust tushmaydi. Shunga qaramasdan, ularning tezlik vektorlari θ vaqt paytida ustma-ust tushadi. Endi esa θ vaqtdan boshlab, quyidagi differensial o‘yin bilan shug‘ullanamiz:

$$\ddot{x} = u,\ x(\theta) = x_*,\ \dot{x}(\theta) = x_{**};\ \ \ddot{y} = v,\ y(\theta) = y_*,\ \dot{y}(\theta) = y_{**}, \tag{12}$$

bu yerda x_*, y_* – obyektlarning θ vaqtdagi vaziyatlari va x_{**}, y_{**} – obyektlar tezliklarining θ vaqtdagi vaziyatlari. Aytish joizki, (12) sistemada $x_{**} = y_{**}$ tenglikka erishildi, aniqrog‘i, (8) umumiy o‘yin yana 1-holga, ya’ni $k = 0$ ga keltirildi.

8-ta’rif. $\alpha > \beta$ va $t \ge \theta$ bo‘lsin. U holda, (12) o‘yinda

$$\boldsymbol{u}_2(z_*, v) = v - \lambda_2(z_*, v)\xi_* \tag{13}$$

funksiya $\boldsymbol{P}$ obyektning Π_2-*strategiyasi* deb ataladi, bu yerda

